Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINI MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH

Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash kafedrasi
o'qituvchisi I.f.f.d (PhD)
Yo'ldosheva Nilufar Zoyir qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
I-52/24-guruh 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23884133

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlarini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Iqtisodiy o'sishni baholashda yalpi ichki mahsulot (YAIM), investitsiyalar hajmi, aholi jon boshiga YAIM va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlarning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblash formulalari va ularning iqtisodiy jarayonlarni baholashdagi o'rni o'rganilgan.
Kalit so'zlar : iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, investitsiyalar, mehnat unumdorligi, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract This article examines the analysis of economic growth rates in Uzbekistan based on macroeconomic indicators. It highlights the importance of such indicators as gross domestic product (GDP), investment volume, GDP per capita, and labor productivity in assessing economic growth. The article also explores formulas for calculating economic growth rates and their role in evaluating economic processes.
Keywords: economic growth, macroeconomic indicators, gross domestic product, investment, labor productivity, economic development.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы анализа темпов экономического роста Узбекистана на основе макроэкономических показателей. Раскрывается значение таких показателей, как валовой внутренний продукт (ВВП), объём инвестиций, ВВП на душу населения и производительность труда, при оценке экономического роста. Также изучаются формулы расчёта темпов экономического роста и их роль в оценке экономических процессов.
Ключевые слова: экономический рост, макроэкономические показатели, валовой внутренний продукт, инвестиции, производительность труда, экономическое развитие.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, investitsion faolligi va aholi

farovonligini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy jarayonlardan biridir. O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy o‘sish sur’atlarini muntazam tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli iqtisodiy o‘sishni faqat yalpi ichki mahsulot hajmi bilan emas, balki investitsiyalar, mehnat unumdorligi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad kabi ko‘rsatkichlar bilan birgalikda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.Mazkur maqolaning maqsadi O’zbekistonda iqtisodiy o’sish sur’atlarini asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar yordamida tahlil qilish,ularni hisoblash usullarini yoritish hamda iqtisodiy o’sishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.[3]

Iqtisodiy o'sish — iqtisodiyotning to'liq bandlik sharoitidagi potensial ishlab chiqarish hajmi uzoq muddat davomida ortib borishi. Bu yalpi taklifning, ya'ni haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. U ikki usulda o'lchanadi: birinchisida real YaIM ning o'tgan davrga nisbatan foiz ko'rinishidagi o'zgarishi, ikkinchisida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM ning o'zgarishi aniqlanadi. Tahlilda YaIM o'rniga SIM, YaMD yoki SMD ko'rsatkichlari ham ishlatilishi mumkin. Iqtisodiy o'sish daromadning iste'mol va investitsiyaga qanday taqsimlanishiga bog'liq. Iste'mol yashash darajasining oshishini, investitsiya esa resurs imkoniyatlarining kengayishi va yangi texnikaning joriy etilishini ko'rsatadi. Ularning o’zaro bog’liqligi shundaki, iste'mol ortib, investitsiya ulushi kamaysa, o'sish imkoniyatlari ham qisqaradi. Har bir mamlakat o'sishga intiladi, chunki u milliy mahsulot va daromadni ko'paytiradi, resurslardan samarali foydalanishga, yangi ehtiyojlar paydo bo'lishiga olib keladi. O'sishga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga bo'linadi: Bevosita omillar ishlab chiqarishni resurslar bilan ta'minlaydi: tabiiy resurslar, mehnat resurslari, asosiy kapital, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish va tadbirkorlik. Bilvosita omillar esa mavjud salohiyatdan qanchalik samarali foydalanishni belgilaydi: raqobat muhiti, soliq va kredit-bank tizimi, iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlari, eksport hamda resurs va daromadlarning oqilona taqsimlanishi. Xususiyatiga ko'ra o'sish ekstensiv va intensiv bo'ladi. Ekstensiv o'sish qo'shimcha resurslarni jalb qilishga (yangi korxonalar, yo'llar, yerlar, ishchi kuchi) asoslanadi, lekin resurslar cheklangani uchun uzoq muddatda imkoniyati kamayadi. Intensiv o'sish esa mavjud resurslardan samaraliroq foydalanish, ya'ni mehnat unumdorligini oshirish, texnologiyani takomillashtirish, ilm-fan yutuqlarini joriy etish va mahsulot sifatini yaxshilash orqali erishiladi. Amalda bu ikki shakl bir-biri bilan bog'liq bo'ladi; unumdorlik va texnologiya hissasi yuqori bo'lsa, o'sish intensiv hisoblanadi. Barqaror o'sish uchun tarmoq tarkibini takomillashtirish ham muhim: xomashyoni chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymati yuqori tarmoqlarni rivojlantirish raqobatbardoshlikni oshiradi, eksport va YaIMdagi ulushni ko'paytiradi hamda yangi ish o'rinlari yaratadi.

1-jadval

Tarmoqlarning YAIM o’sishiga hissasi (foiz punkt, ikki yillik o’rtacha)

Ko’rsatkich	2020-2021	2022-2023	2024-2025
Qishloq xo’jaligi	0.75	0.85	0.70
Sanoat	1.30	1.40	1.70
Qurilish	0.55	0.55	0.80
Xizmatlar	2.0	3.25	3.60
Mahsulotlarga sof soliqlar	0.20	0.15	0.30
YAIM o’sishi, %	4.8	6.15	7.1

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillarda O'zbekiston iqtisodiy o'sishining asosiy qismi xizmatlar sohasi hisobiga ta'minlangan. Xizmatlarning YAIM o'sishiga hissasi 2020–2021-yillardagi o'rtacha 2,0 foizdan 2022–2023-yillarda 3,25 foizga, 2024–2025-yillarda esa 3,6 foizga oshgan. Bu umumiy o'sishning taxminan yarmini (2022–2025-yillarda 51–53 foiz) tashkil etadi. Sanoatning hissasi 1,3 foizdan 1,7 foizgacha barqaror o'sgan. Qurilishning hissasi 2024–2025-yillarda 0,8 foizgacha ko'tarilgan, bunga infratuzilma loyihalari va uy-joy qurilishining faollashuvi sabab bo'lgan. Qishloq xo'jaligining hissasi esa 0,7–0,85 foiz atrofida turgan va uning ulushi kamayib borgan. 2020–2021-yillarda o'rtacha o'sish 4,8 foizni tashkil etgan. Bunga pandemiya davridagi sekinlashuv (2020-yilda 1,6 foiz) va 2021-yildagi tiklanish (8,0 foiz) sabab bo'lgan. 2024–2025-yillarda o'rtacha o'sish 7,1 foizgacha tezlashgan. Demak, iqtisodiy o'sish tarkibi qishloq xo'jaligidan xizmatlar va sanoat tomon siljigan.[3]

Iqtisodiy o'sishning E.Domar modeli: Domar investitsiyalarni ham talab, ham taklif omili deb qaraydi. Investitsiyalar multiplikativ ta'sir orqali talabni oshiradi, shu bilan birga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, tovarlar taklifini ham ko'paytiradi. Talab o'sishi taklif o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday sur'atda o'sishi kerakligini aniqlash uchun model uchta tenglamadan iborat: Taklif tenglamasi: **▲Ys = I·α.**

Bunda α kapital qo'yilmalarning chegaraviy unumdorligi. Masalan, 1 mlrd so'mlik qo'shimcha mahsulot uchun 4 mlrd so'm investitsiya kerak bo'lsa, α = 0,25. Talab tenglamasi: **▲Yd = ΔI·(1/μ).**

Bunda 1/μ xarajatlar multiplikatori, μ esa jamg'arishga chegaralangan moyillik.

Muvozanat tenglamasi: ▲I·(1/μ) = I·α.

Oxirgi tenglamadan **▲I/I = μ·α** kelib chiqadi. Demak, to'liq bandlikni ta'minlash uchun investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati jamg'arishga moyillik va kapital unumdorligining hosilasiga teng bo'lishi kerak. Agar μ = 0,2 va α = 0,4 bo'lsa, ▲I/I = 0,2 × 0,4 = 0,08, ya'ni investitsiyalar yiliga 8% o'sishi talab etiladi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish zarur. Buning uchun jamg'arish normasini ko'tarish hamda fan-texnika taraqqiyoti orqali kapital samaradorligini oshirish kerak.

Xarrod modeli: Domar investitsiyalarni ekzogen, ya'ni berilgan miqdor deb olgan edi. R. Xarrod 1939-yilda ishlab chiqqan modelda esa akselerator prinsipi va tadbirkorlar kutishiga asoslangan endogen funksiya kiritdi. Akselerator prinsipiga ko'ra investitsiyalar nafaqat daromad keltiradi, balki ishlab chiqarish va daromadlarning o'sgan hajmi ham investitsiya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi. Xarrod modeli uchta tenglamaga tayanadi: kafolatlangan, haqiqiy va tabiiy o'sish sur'ati tenglamalari. Haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi: **Gr · c = s** Bunda: Gr - YaIMning haqiqiy qo'shimcha o'sish sur'ati, ▲Y/Y; c- ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsienti, I/▲Y; s- milliy daromaddagi jamg'arish ulushi, ya'ni jamg'arishga o'rtacha moyillik, S/Y. Tadbirkorlar dinamik muvozanat ta'minlangan o'sish sur'ati bo'lgan kafolatlangan (prognoz qilingan) o'sish sur'atiga asoslanib o'z investitsiya rejalarini tuzadilar. Kafolatlangan o'sish sur'ati jamg'arishga o'rtacha moyillik darajasining akseleratorga nisbati sifatida aniqlanadi: **Gw = s / cr** Bunda: Gw- kafolatlangan o'sish sur'ati; cr- talab etiladigan kapital talabchanlik koeffitsienti (o'tgan yillarda shakllangan darajasi). Bu ko'rsatkichlar doimiy bo'lganligi sababli kafolatlangan o'sish sur'atlari ham doimiy bo'ladi. Agar haqiqiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atiga mos kelsa, iqtisodiyotda barqaror uzluksiz o'sish ta'minlanadi. Amaliyotda bunga doimo erishib bo'lmasligi tufayli qisqa muddatli davriy tebranishlar ro'y beradi. Tabiiy o'sish sur'ati - Xarrod modelida resurslardan to'liq foydalangan sharoitda ta'minlanishi mumkin bo'lgan maksimal o'sish sur'ati tabiiy

o'sish sur'ati (Gn) deb nomlandi. Uning kafolatlangan o'sish sur'ati bilan munosabati quyidagicha: **Gn · cr = yoki ≠ s** Iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanati to'liq bandlilik sharoitida kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari o'zaro teng bo'lganda (Gw = Gn) ta'minlanadi. Ammo bunday tenglikka davlatning faol aralashuvi orqaligina erishiladi.

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari: R.Solou modeli. Neoklassik modellar barcha iqtisodiy jarayonlarning aniq holatini qamrash xususiyatiga egadir.Birinchi neoklassik model R.Solou tomonidan 1956-yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga hissa" asarida tasvirlab berildi va so'ngra 1957-yilda "Texnologik taraqqiyot va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirilganini ko'rishimiz mumkin. R. Solou modeliga ko'ra, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega. Ushbu muvozanat iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi bilan ularga bo'lgan umumiy talabning o'zaro mos kelishini anglatadi. Bu esa iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.Modelda yalpi taklif Kobb-Duglasning ishlab chiqarilgan funksiyasi bilan ifodalangan.Bu funksiya bir tomondan ishlab chiqarish hajmi va ikkinchi tomondan foydalanilayotgan omillar hamda ularning o'zaro kombinatsiyalari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni ifodalaydi, ya'ni

Y=f(L,K,N)

Modelda yuqori texnik rivojlanish bosqichida yerning kichik ahamiyatga egaligi tufayli ishlab chiqarish faqat mehnat resurslari va kapitalga bog'liq deb olinganligini ko'rishimiz mumkin: **Y=f(L,K)**

Funksiyaning kengaytirilgan ko'rinishi quyidagicha :

Y=(▲Y/▲L)L+(▲Y/▲K)K

Bu yerda:

▲Y/▲K – mehnatning chekli mahsuloti (MPL);

▲Y/▲K – kapitalning chekli mahsuloti (MPK

1-rasm.



Amortizatsiya quyidagicha hisobga olinadi: agar yiliga eskirish hisobiga kapitalning qayd etilgan d qismi chiqib ketadi deb hisoblasak (chiqib ketish normasi), chiqib ketish miqdori kapital hajmiga proporsional bo‘ladi va dk ga teng bo‘ladi. Grafikda bu aloqadorlik koordinata boshidan d burchak koeffitsenti bilan chiquvchi to‘g‘ri chiziq bilan aks ettiriladi. (1-rasm.)

J. Mid va A. Lyuisning iqtisodiy o‘sish modellari: J. Midning iqtisodiy o‘sish modeli. J. Mid modelida iqtisodiy o‘sish kapital, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq holda izohlanadi. Kapital hajmining ortishi, mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida ushbu yondashuv investitsiyalarni ko‘paytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish zarurligini ko‘rsatadi. A. Lyuisning iqtisodiy o‘sish modeli. Artur Lyuis modeli rivojlanayotgan mamlakatlarda an’anaviy qishloq xo‘jaligi sektoridan zamonaviy sanoat sektoriga ishchi kuchining o‘tishiga asoslanadi. Sanoatning rivojlanishi yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va investitsiyalarni kengaytirishga imkon beradi. O‘zbekiston sharoitida ushbu model qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining sanoat va xizmatlar sohasida ish bilan ta’minlanishi, kasbiy malakasini oshirishi hamda mehnat resurslarining samarali taqsimlanishini o‘rganishda ahamiyatlidir.Umuman olganda, J. Mid va A. Lyuis modellari iqtisodiy o‘sishni turli jihatlar bilan tushuntiradi. Mid yondashuvi kapital, mehnat va texnologik taraqqiyotning ahamiyatini yoritishga, Lyuis modeli esa mehnat resurslarining tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlanishi orqali iqtisodiy rivojlanishni tushuntirishga yordam beradi.[1]

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, iqtisodiy o‘sish mamlakatning barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omilidir. Uni baholashda YAIM, aholi jon boshiga real YAIM, investitsiyalar hajmi hamda mehnat unumdorligi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Iqtisodiy o‘sish resurslar hajmi, texnologiyalar va ishlab chiqarish samaradorligiga tayanadi. Uzoq muddatli barqarorlik uchun ekstensiv omillardan ko‘ra, mehnat unumdorligi va texnologik taraqqiyotga asoslangan intensiv o‘sish omillari muhim ahamiyatga ega.

Klasik va zamonaviy iqtisodiy modellar (E. Domar, R. Xarrod, R. Solou, J. Mid, A. Lyuis) investitsiyalar, kapital, mehnat resurslarining tarmoqlararo ko‘chishi va texnologiyalar o‘sishning bosh drayveri ekanligini ko‘rsatadi.O‘zbekiston iqtisodiyotida barqaror o‘sishga erishish uchun sanoat va xizmatlarni modernizatsiya qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish hamda malakali kadrlarni tayyorlash lozim. Eng muhimi, iqtisodiy o‘sish nafaqat YAIM hajmi, balki aholi jon boshiga real daromadlar va sifatli ish o‘rinlari bilan baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M. Makroiqtisodiyot: darslik. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi’’, [166-194-b]
2. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari: darslik. – Toshkent: LESSON PRESS, 2018. – 479 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti. URL: https://stat.uz (murojaat sanasi: 24.10.2026).